

**“Hududiy elektr tarmoqlari” Aksiyadorlik jamiyati ta’lim tashkiloti va muassasalarining ingliz tili o’qituvchilarini fuqarolik-huquqiy shartnoma (to’lov) asosida tarjimonlik va hujjatlar tarjimasini xizmatlariga jalb qilish bo’yicha tanlov e’lon qiladi**

**Nomzodga qo’yiladigan talablar:**

- xorijiy til bilish bo’yicha IELTS sertifikatini (o’rtacha kamida 7 ball), tasdiqlovchi hujjat – sertifikat nusxasi;
- ingliz tilini o’qitish bo’yicha pedagogik tajribasi, tajribasini tasdiqlovchi hujjat–oliy ma’lumotini tasdiqlovchi diplom va mehnat daftarchasidan nusxa;
- “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning asosiy faoliyati iqtisodiyot tarmoqlarini va aholini elektr energiyasi bilan ta’minlash ekanligini hamda mazkur faoliyat “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni doirasida ko’rib chiqilishini inobatga olgan holda, jalb qilinadigan tarjimon korporativ boshqaruv, moliyaviy tahlil va muxandislik sohasiga oid terminlar bilan ishlash tajribasiga ega bo’lishi;
- to’g’ridan-to’g’ri yoki masofadan o’tkaziladigan majlislarda (o’tkazilish davriyligi ishlab chiqarish zaruratiga qarab belgilanadi) ishtirok eta olishi va sinxron tarjima qilish xizmatini ko’rsata olishi, tajribasini tasdiqlovchi hujjat – ta’lim tashkilotining yoki tarjimon xizmatidan foydalangan tashkilot va muassasaning tavsiyanomasi;
- Chet el fuqarolari ishtirok etadigan majlislar uchun o’zbek tilida tayyorlangan hujjatlarni ingliz tiliga tarjima qilish ko’nikmalarining mavjudligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ faoliyati bilan bog’liq normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan ichki hujjatlarni ingliz tiliga tarjima qila olishi;

**Tarjimonning asosiy vazifalari:**

- boshqaruv organi a’zosi ishtirok etadigan majlislarda (majlislar to’g’ridan-to’g’ri yoki masofadan o’tkazilishi mumkin bo’lib, o’tkazilish davriyligi ishlab chiqarish zaruratigisha qarab belgilanadi) oldindan tayyorgarlik ko’rish jarayonida va majlis o’tkazilish jarayonida tarjimon (ingliz tilidan o’zbek tiliga va o’zbek tilidan ingliz tiliga) xizmatlari bilan ta’minlash;
- boshqaruv organi a’zosini “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ bilan yaqindan tanishib olishi uchun zarur bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan ichki hujjatlarni ingliz tiliga tarjima qilish, boshqaruv organi a’zosi ishtirok etadigan majlislar uchun o’zbek tilida tayyorlangan hujjatlarni ingliz tiliga tarjima qilish xizmatlari bilan ta’minlash;

**Maosh:** Shartnoma asosida (tanlov natijalariga ko’ra xarid komissiyasi qarori asosida) belgilanadi.

**Bandlik:** Fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida.

**Ish manzili:** Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko’chasi, 8 uy.

**Tijorat takliflari (tarjimonlik va o‘qitish bo‘yicha xizmat haqlari ko‘rsatilgan holda) va boshqa hujjatlar (rezyume) elektron tarzda qabul qilinadi.**

**Pochta manzili:** info@het.uz

**Nomzodlarni qabul qilish muddati:** E‘lon joylashtirilgan kundan boshlab 10 kuni ichida ya‘ni 2024 yilning “10” oktabridan - “20” oktabrigacha (shu kuni ham ) davom etadi.

**Aloqa uchun telefon:** Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig‘i D. Isakov tel (+99878)-150-73-45 (ichki 1015)